



Til – millat g‘ururi.

Toshkent shahar yuridik texnikumi "

“ Mutaxassislik fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi.

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna.

21-OKTABR – O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada til bilan madaniyatning o'zaro munosabati haqida fikr yuritilgan. Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda "madaniyat" tushunchasi xususida batafsil to'xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, lingvomadaniyat, antropologik tadqiqotlar, xususiyat, semiotik yondashuv, tafakkur.

KIRISH.

Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda "madaniyat" tushunchasi xususida batafsil to'xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud. Masalan, G.V.Yelizarova "madaniyat" tushunchasini intuitiv jihatdan shaffof bo'lib tuyuladigan aksiomatik tushunchalar qatoriga kiritadi. Biroq bunday kompleks tushunchaga ta'rif keltirish nihoyatda murakkab holdir. Madaniyatning "Madaniyat - bu bizning bu yerda qanday yashashimizdir" kabi qaysidir bir jihatga to'xtalmasdan ushbu tushunchaning barcha qirralarini qamrab olishga intiladigan ta'riflar ham mavjud.

Til – muqaddas va e'zozlangan tushuncha, har bir inson uchun o'z onasi kabi aziz va mo'ʻtabar. Til – hayotning boshlanishi. Inson o'z ona tili yordamida yangi tushunchalar va munosabatlarni anglay boshlaydi. Ona tili bizga ona suti bilan singdiriladi.



Inson ulgʻaygan sayin atrofida gilar bilan muloqot qilish, badiiy kitoblar oʻqish orqali soʻz boyligini oshirib boradi.

Ota-bobolarimiz tarixi, milliy va maʼnaviy qadriyatlarimiz bizga ona tilimiz yordamida meros boʻlib qoldi. Xalqlar tarixi – bu ular tilining tarixi. Davlat rivojlanishi bilan davlat tili ham rivojlanadi. Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – bu ona tili va milliy madaniyati. Dunyoning barcha davlatlari oʻz ona tillarini asrab-avaylashga intilishadi, shuning uchun har qanday davlat oʻzining madaniy merosi va ona tilini alohida hurmat qiladi.

Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri bu til ekan, har bir inson oʻz tilini bilishi, uni ulugʻlashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga ham hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obruyi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning meʼyoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, rivojlanishini millat tarixidan ayri holda oʻrganib boʻlmaydi.

Yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh boʻlish uchun Oʻzbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmaslik kerakki, oʻzbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir Oʻzbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart.

Hech kim hech qachon oʻz ona tiliga boʻlgan hurmatni yoʻqotmasligi kerak. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. Oʻz ona tiliga ega boʻlmagan xalq mamlakat boʻlolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd boʻlsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dogʻ tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga boʻlgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar koʻlami yil sayin kengayib bormoqda.



Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart.

O'zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari maxsus qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Dunyoda taniqli mamlakat bo'lish uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz lozim.

Madaniyat ta'rifiga oid boshlang'ich yondashuv madaniyat bu barcha jamiyatlarga xos bo'lgan gomogen holatdir, degan tasavvurga asoslangan. Jamiyatdagi tafovutlar ularning mohiyati, mazmunidagi farqlar sifatida emas, balki ayni bir holat - madaniyatning ravnaqi darajasidagi tafovutlar sifatida talqin etilgan. Yovvoyilikdan sivilizatsiyaga tomon taraqqiyot o'lchov mezoni bo'lib xizmat qilgan. Jamiyat o'z tasarrufida sivilizatsiyaning qanchalik ko'proq belgilariga ega bo'lsa, u madaniy jihatdan shunchalik ko'p taraqqiy etgan deb hisoblangan. Biz E.Teylor asarlarida madaniyatni tushunishga nisbatan shunday yondashuvning eng yorqin ifodasini uchratamiz. Uning ancha keng tarqalgan madaniyat ta'rifi madaniyatni bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va insonning jamiyat a'zosi sifatida orttiradigan boshqa har qanday belgilari va odatlarini o'z ichiga oladigan yaxlit kompleks hodisa sifatida ifodalaydi. Lekin bunday nuqtai nazar bilan kelishish qiyin: sivilizatsiya va madaniyat - bir-biridan ancha farq qiladigan tushunchalardir.



Bir holatni boshqa bir holat orqali baholash mumkin emas, chunki ushbu har ikkala tushuncha turlicha ma'noli hollarga tegishlidir.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda yuz berayotgan hayotiy jarayonlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish vazifasi til islohoti bilan bog'liq masalalarga zarur tuzatishlar kiritish ehtiyojini tug'dirdi. Respublikamiz hali sobiq Ittifoq tarkibida bo'lganidayoq tilimizni sofliğini, o'ziga xosligini mustahkamlash uchun say-harakatlar boshlab yuborildi. Jumladan, 1989 yilda qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunga bir qator o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Natijada 1995 y. 22 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida D.t. sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va b. qonunlar bilan belgilanadigan bo'ldi.

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrda 168-I-sonli qarorining 2-bandiga muvofiq mazkur Qonunning 9 va 10-moddalari 2005-yilning 1-sentabridan e'tiboran kuchga kirdi.

Qonunning 1-moddasiga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir". 2-modda.

"O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi".

3-modda.

"O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab beriladi", degan qoidalar mustahkamlangan.



Xullas, til – jamiyatning asosiy tayanchi, insoniy muloqot-munosabatlarning birlamchi vositasi, millat ruhi va davlatchilik taqdiridir. Har bir xalq va millat, davlat va jamiyatning o‘tmishi, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi. Til – muloqot zarurati tufayli yaralgan, muloqot jarayonida insoniyat yaratgan barcha yangiliklarni, tafakkur mevalarini anglatib, avloddan-avlodga yetkazib, avaylab-asrab keladi.

Shunday ekan, tilimizni e‘zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma‘naviy burchimiz bo‘lib qoladi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi. Zero, til bor ekan millat barhayotdir.

ADABIYOTLAR.

1. Shofqorov, A. M., Baykabilov, U. A., Bayzakov, J. A., & Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL O 'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI. Science and Education, 1(Special Issue 3).
2. Тангирова, Г. И. (2020). ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ. Science and Education, 1(Special Issue 3).
3. Shofqorov, A. M., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Alimova, E. B. (2020). O 'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARDA "DO 'STLIK" KONSEPTI IFODALANISHI. Science and Education, 1(Special Issue 3).
4. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O 'ZBEK VA XORIJIY TILLARDA ANTONIMLAR TAVSIFI, O 'RNI VA ULARNIG TURLI JIHATDAN TASNIFLANISHI. Science and Education, 1 (Special Issue 3).
5. Kaldibayeva, D. O. (2020). TALABALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI. Science and Education, 1(Special Issue 3).